



ALISHER NAVOIY ASARLARINI O'RGANISHDA XX ASR OLIMLARI VA HOZIRGI DAVR NAVOIYSHUNOSLARINING ILMIIY QARASHLARI

Muallif: Raxmonjonova Guljaxon Lutfillo qizi ¹

Affiliyatsiya: Termiz Davlat universiteti matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo'nalishi 1-kurs magistranti ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20226345>

ANNOTATSIYA

Navoiy asarlari XV asrdan boshlab sharq mamlakatlarida mutolaa qilingan bo'lsa-da, ularni ilmiy asosda o'rganish jarayoni, asosan, XX asrda shakllandi. XX asr navoiyshunosligi Navoiy merosini adabiyot tarixi, ijtimoiy tafakkur, badiiy tafakkur taraqqiyoti doirasida tadqiq etishga yo'naltirilgan bo'lsa, hozirgi davrda ushbu tadqiqotlar matnshunoslik, manbashunoslik, tasavvufshunoslik va poetika kabi zamonaviy ilmiy yo'nalishlar bilan boyitilmoqda. Mazkur maqolada Alisher Navoiy asarlarini o'rganishdagi XX asr olimlari va hozirgi olimlarning ilmiy qarashlari va asarlar to'g'risidagi ilmiy yondashuvlarining turlicha tafovutlari haqida so'z boradi. Shuningdek, maqolada navoiyshunos olimlarning metodologik usullarining hamda asosiy xulosalarining qiyosiy tahlili o'rin olgan.

Kalit so'zlar: tafakkur, tasavvufiy adabiyot, leksik qatlam, ramziy struktura, poetik tafakkur.

Vaqt o'tgani sayin nazariy qarashlar o'zgarib, yangi ilmiy yo'nalishlar, zamonaviy tahlil usullari, shuningdek zamonaviy-texnologik terminlar bilan birgalikda lingvopoetik nazariyalar ham o'zgarib, yangilanib boraveradi. Bu xususda butun boshli ilmiy-badiiy asarlardagi o'zgarishlar-u, tadqiqot dissertatsiyalarda yangidan yangi sohalarni namoyon bo'lishi ham ushbu maqolamizga yaqqol misol bo'la oladi. Navoiy asarlarini o'rganayotgan olimlar ham mana shu zamonaviy yondashuvlar asosida turli xil ilmiy izlanishlar va qarashlarini o'zlarining ilmiy uslublari orqali ochib bermoqdalar. Shuningdek yurtboshimiz ham zamonaviy yangilanish bosqichi haqida quyidagi fikrlarni aytib: "Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim Uyg'onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun "Yangi O'zbekiston" va "Uchinchi Renessans" so'zlari hayotimizda o'zaro uyg'un va hamohang bo'lib yangramoqda, xalqimizni ulug' maqsadlar sari ruhlantirmoqda», — deya xulosa qiladi Shavkat Mirziyoyev [13:1].

XX asrda navoiyshunoslik fanining shakllanishi

O'zbek adabiyotshunosligida Navoiy merosini ilmiy o'rganish jarayoni XX asr boshlarida jadid ma'rifatchiligi bilan chambarchas bog'liq holda shakllandi. Bu jarayonda Abdurauf Fitratning xizmatlari alohida e'tiborga loyiq. "Fitrat o'zining "Navoiyning forsiy shoirligi ham uning forsiy devoni to'g'risida" ("Maorif va o'qitguvchi" jurn.,1925) va "Farhod-u Shirin" ("Alanga" jurn.,1930)[8:11]" kabi Alisher Navoiy haqidagi ilmiy tadqiqotlarida shoir ijodini milliy adabiyot taraqqiyotining muhim bosqichi sifatida talqin qilib, uni turkiy adabiyot tarixidagi eng yirik siymo sifatida ko'rsatadi. Fitrat Navoiy shaxsini turkiy milliy tafakkur asoschisi, turkiy tilning

adabiy til sifatida yuksalishiga sababchi, sharq adabiy an'analari bilan turkiy adabiyotni bog'lovchi mutafakkir sifatida baholaydi.

Fitratdan so'ng bir qancha olimlarning ilmiy faoliyatlati Navoiyning 500 yillik yubileyida ko'plab maqolalar e'lon qilinib nutq so'zlandi. Ushbu yubileyda V.V. Bartold, A.N. Samoylovich, F. Ko'pluruzoda, B. Cho'ponzoda kabi olimlar qatnashdilar [8:11]. Sovet davrida Navoiy merosini o'rganishda tarixiy-ijtimoiy va g'oyaviy yondashuv ustuvor bo'ldi. Bu metodologiya shoir asarlarini jamiyat hayoti, ijtimoiy adolat, xalq manfaatlari bilan bog'liq holda tahlil qilishga asoslandi. Vohid Abdullayev o'zining "Alisher Navoiyning Samarqanddagi adabiy faoliyati" dissertatsion tadqiqotida Navoiy ijodini o'zbek adabiyoti tarixining markaziy bosqichi sifatida ko'rsatib, uning asarlarida jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, axloqiy inqiroz va insoniy kamolot muammolari yoritilganini ta'kidlaydi. Bu davr tadqiqotlarida Navoiy: feodal jamiyat illatlarini fosh qilgan, xalqparvar shoir, ma'rifatparvar mutafakkir sifatida talqin qilindi.

XX asrning 50-yillariga kelib matnshunoslik yo'nalishiga ahamiyat berila boshlandi va Navoiy asarlarining to'liq ma'no jihatlari ochib berilib xato va kamchiliklar tuzatila boshlandi. Yangi asarlari topilib, tabdil qilish bilan birgalikda ilmiy-tanqidiy matnlari yaratila boshlandi. Porso Shamsiyev XX asr o'zbek adabiyotshunosligida mumtoz adabiyot, xususan, Navoiy asarlarini matn va manba nuqtayi nazaridan o'rganishga katta hissa qo'shgan olimdir. "1950-1960 yillarda Porso Shamsiyev "Xamsa"ning ilmiy-tanqidiy matnini, Hamid Sulaymonov esa "Xazoyin ul-maoniy"ning akademik nashrini amalga oshirdilar [8:12]". Olim Porso Shamsiyev Navoiy devonlari va dostonlari tilini, leksik qatlamini va poetik ifoda vositalarini tadqiq etib, shoirning adabiy tilni shakllantirishdagi o'rnini alohida asoslab beradi. Porso Shamsiyevning asosiy ilmiy qarashlariga ko'ra: Navoiy turkiy adabiy tilni mustaqil poetik tizim darajasiga olib chiqdi; shoir badiiy tafakkuri faqat mavzu va g'oyada emas, balki til va uslubda ham yangilik yaratdi; Navoiy she'riyatida xalq og'zaki ijodi unsurlari bilan mumtoz an'ana uyg'unlashgan. Shamsiyev, ayniqsa, Navoiy g'azallaridagi so'z tanlash mahorati, obraz yaratish texnikasi va badiiy sinonimlar tizimini alohida tahlil qiladi. XX asr tadqiqotlarida Navoiy asarlarining g'oyaviy-mazmuniy talqini yetakchi bo'lib, tasavvufiy qatlam, ramziy tuzilma va botiniy ma'nolar cheklangan doirada tahlil qilingan. Ko'plab tadqiqotlarda: irfoniy istilohlar, Qur'on va hadis manbalari bilan bog'liqlik, tasavvufiy timsollar chuqur ilmiy izohlanmagan. Shuningdek, hozirgacha olimning "Xamsa"ga tuzgan ilmiy-tanqidiy matnidan navoiyshunoslar zamonaviy nashr tayyorlashda foydalanib kelmoqdalar.

XX asr navoiyshunosligida sharqshunos olim E.Y. Bertelsning ilmiy merosi alohida ahamiyatga ega. Bertels Navoiy ijodini nafaqat turkiy adabiyot doirasida, balki butun Sharq mumtoz adabiyoti kontekstida tahlil qilgan. Uning "Navoiy" monografiyasida Navoiy ijodi: Jomiy maktabi, fors-tojik tasavvufiy adabiyoti, tasavvufiy falsafaning adabiy ifodasi nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Bertels Navoiy asarlaridagi tasavvufiy ramzlar va badiiy an'analarning manbalarini ilmiy asosda izohlab beradi.

Abduqodir Hayitmetov mamlakatimizdagi yirik adabiyotshunos olim sifatida Alisher Navoiy ijodiy faoliyatini o'rganishga salmoqli hissa qo'shdi. U, avvalambor, Navoiyning ijodiy metodlarini o'rganib chiqib keyinchalik "Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari", "Navoiy lirikasi", "Sharq adabiyotining ijodiy metodi tarixidan", "Navoiyxonlik suhbatlari" kabi kitoblari bilan Navoiy ijodining serqirra jihatlarini tadqiq etishga salmoqli hissa qo'shdi.

Suyima G'aniyeva adabiyotshunos, matnshunos va manbashunos olima Alisher Navoiy ilmiy merosini o'rganishdagi harakatlari, izlanishari alohida

ahamiyatga ega. Olima "Alisher Navoiy" kitobi orqali Navoiyning Hayot yo'li va davlat boshqaruvidagi say-harakatlarini ochib berishgan uringan. Shu bilan birgalikda "Alisher Navoiy ijodidagi insonparvarlik g'oyalari" kitobini mutolaa qilganimizda Navoiy asarlaridagi insonparvarlik motivlarini alohida e'tiborga molik tarzda, ko'rsatib beradi. Olima ilmiy-tanqidiy matn yaratishda va Navoiy asarlarining nashrlarida faol ishtirok etadi.

Alibek Rustamov o'zining "Navoiyning badiiy mahorati" risolasida "Alisher Navoiy asarlarining jahonshumul ahamiyati va barhayotligining sababi ham uning ijtimoiy ahamiyatga ega yuksak fikrlarni oliy badiiy shaklda bera olganligini ilmiy-nazariy jihatdan chuquq tadqiq etadi [7:320]". Bu bilan olim Navoiy asarlarining ijtimoiy qatlamga ham birdek zarur ekanligini ham so'zsiz aytib o'tadi.

Hamid Sulaymonovning asosiy ilmiy faoliyati "A.Navoiy lirikasining tekstologik tadqiqotlariga bag'ishlangan. Navoiy qo'lyozmalarining bibliografiyasini yaratish davomida u dunyoning yirik kutubxonalarida saqlanayotgan "Badoe ul-bidoya" va "Navodir un-nihoya" devonlarining shoir Alisher Navoiyga mansubligini isbotladi va ularni O'zbekistonga keltirilishida katta rol o'ynadi [12:1]".

Aziz Qayumov tadqiqotlarida Navoiy ijodining umumturkiy adabiyotga ta'siri masalasi markaziy o'rinni egallaydi. Olim Navoiy maktabining shakllanishini ilmiy asosda isbotlab, shoir ijodining keyingi asrlardagi turkiy adabiyot rivojiga bevosita ta'sirini ko'rsatadi.

Shuningdek, yuqoridagi olimlardan tashqari yuzlab olimlar Navoiyning ilmiy merosini o'rganishda ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borib, o'zlarining ilmiy yo'nalishlari va uslublari orqali Navoiy ijodini keng tahlil va talqin qilishga asosiy e'tiborlarini qaratishdi.

Mustaqillikdan keyingi navoiyshunoslikning yangi bosqichi

Mustaqillik yillaridan so'ng navoiyshunoslikda metodologik yangilanish yuz berdi. Navoiy merosini o'rganishda: milliy-ma'naviy qadriyatlar, tasavvufiy tafakkur, sharq falsafasi asosiy tadqiqot yo'nalishiga aylandi. Bunda mantshunos va navoiyshunos olimlardan S.Hasanov, M.Muhiddinov, H.Qudratullayev, A.Hayitmetov, R.Vohidov, A.Abdug'ofurov, S.Olimov, S.G'aniyeva, N. Komilov A.Hojiahmedov, I.Haqqulov, A.Qayumov, A.Rustamov, A.Erkinovlar navoiy asarlaridagi tasavvufiy va istilohiy ma'nolar qatlami, kompziSION qurilishdagi motivlarning ilohiy ma'nolari ko'lamini va, bundan tashqari, matnshunoslik talqinlarda sharq falsafalarini ochib berishda muhim rol o'ynadi.

Nurboy Jabborov adabiyotshunos olim so'nggi yillarda o'zining bir qancha kitoblari va ilmiy maqolalarida qiyosiy uslubdan foydalanib Navoiy zamondoshlari va ularning asarlaridagi tasavvufning asl mohiyatlarini ochib bermogda. Shuningdek, "Alisher Navoiy asarlarida "dunyo" timsoli va uning talqinlari" ilmiy maqolasida "Alisher Navoiy asarlarida dunyo timsoli ikki xil ma'noda qo'llangani kuzatiladi: 1) inson yashab turgan dunyo; 2) odamzotni ma'rifatdan to'suvchi parda [5:94]" — deya ta'riflab, tasniflab Navoiyga sifat berib o'tadi. Umuman olganda, Nurboy Jabborov Navoiyning shaxsiyatidan tashqari tasavvuf olamidagi so'zlarni qo'llashiga ko'proq e'tibor qaratadi.

Vahob Rahmon mustaqillikdan keyingi navoiyshunoslikda Navoiy shaxsini milliy va ma'naviy tafakkur markazi sifatida talqin qilgan olimdir. U sovet davridagi tor ijtimoiy-sinfy yondashuvdan voz kechib: Navoiyni islomiy-ma'rifiy tafakkur egasi, Sharq uyg'onish madaniyatining yetuk vakili, badiiy tafakkuri Qur'on va tasavvuf

manbalari bilan uzviy bog'liq ijodkor sifatida izohlaydi. Rahmon qarashlarida: Navoiy ijodining markazida – inson, komillik va ilohiy muhabbat turadi.

Najmiddin Komilov mustaqillikdan keyingi navoiyshunoslikda tasavvufiy adabiyot nazariyasini tiklagan va Navoiy ijodini aynan shu ruhda talqin qilgan yetakchi olim hisoblanadi. Uning asosiy qarashi: Navoiy – avvalo tasavvuf adabiyotining buyuk namoyandasi. Komilov: badiiy matnni faqat estetik emas, balki irfoniy (ma'rifiy) ramzlar tizimi orqali tahlil qiladi.

Qozoqboy Yo'ldoshev Navoiy asarlarini badiiy tafakkur va obrazlar tizimi nuqtayi nazaridan tahlil qilgan. Uning asosiy yo'nalishi: syujet emas, badiiy tafakkur mexanizmini ochish. Yo'ldoshev Navoiy asarlarini: mumtoz poetika, zamonaviy adabiyotshunoslik metodlari asosida qiyosiy o'rganadi.

Akrom Malikov zamonaviy matnshunos, navoiyshunos olim Navoiyning asarlarini o'rganish bilan birga Akrom Malik "Qalbning ichidagi nur" risolasi Alisher Navoiyning Xamsa dostonidagi "Hayrat ul-abror" asari matni, sharhi, nasriy bayoni va lug'atini o'zida mujassam qilgan birinchi kitobdir. Akrom Malik ushbu kitob haqida fikr bildirar ekan: "Navoiyni o'zbek xalqi sevadi. Uni ommaga yaqinlashtirishda ushbu kitob yordam beradi. Mening asosiy maqsadim ushbu kitobni 3 jildini ham chop ettirishdir", – deydi [14:1]. Yosh navoiyshunos Akrom Malik Navoiy asarlarini **kompleks yondashuv** asosida o'rganishni ilgari suradi. Ya'ni, shoirning dostonlari, g'azallari va nasriy asarlarini bir-biridan ajratib emas, balki yagona badiiy-falsafiy tizim sifatida ko'rish lozim deb hisoblaydi. Uning fikricha, Navoiy ijodi — bu o'z davrining ijtimoiy, siyosiy va axloqiy muammolariga berilgan mukammal javobdir.

Murtazoyev Bobonazar adabiyotshunos olim o'z tadqiqotlarida Navoiy va Dehlaviylarning dostonlarini o'zaro qiyosiy aspekt tahlil qiladi va "Sab'ai sayyoor" dostonining "Hasht Behisht" dostoningdan farqlanishi va Navoiyning dostoni orginal ekanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, tadqiqotlari orqali Dehlaviyga Navoiyning munosabatini ham ochib beradi.

Dilnavoz Yusupova zamonaviy adabiyotshunos Navoiy davriga alohida e'tibor qaratib "O'zbek mumtoz adabiyot tarixi" o'quv qo'llanmasini yaratdi. Ushbu darslik Navoiy davri adabiyotining chuqur o'rganilganini yaqqol misoli bo'la oladi. Darslik ko'proq Navoiy lirikasini o'rganishga qaratilgan bo'lib, forsiy she'riyati ham tahlil qilib o'tilgan.

Hamidulla Dadaboyev mustaqillikdan keyingi navoiyshunoslikda tilshunoslik yo'nalishini rivojlantirgan. U Navoiy asarlarini: eski o'zbek adabiy tili, chig'atoy tili taraqqiyoti nuqtayi nazaridan tadqiq qiladi. U o'zining maqolasida Navoiyning g'azaliyotidagi kinoya janriga e'tibor qaratib, tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlari kesimida, lingvopoetik nuqtayi nazaridan maxsus tadqiqotni amalga oshiradi.

Nafas Shodmonov ham hozirgi zamonaviy mantshunos va navoiyshunos olimlar qatorida Navoiyning asarlaridagi so'zlar talqini va tadqiqiga e'tibor qaratib ularni lingvopoetik usulda tahlil qilib kelmoqda. Xususan, olimning "Alisher Navoiyning vaqt konsepsiyasi" ilmiy maqolasida Navoiyning tasavvuf va falsafa olamida vaqtga doir terminlarning istilohiy ma'nolaridan mohirona foydalanganligini ko'rsatib beradi.

Abdimurod Arslonovning ilmiy qarashlariga ko'ra Navoiy buyuk bir so'z ustasi, tasavvufiy va falsafiy jihatdan so'zga sodiqlikda tengi yo'q buyuk bir alloma sifatida o'rganilib kelinmoqda. Bu haqida matnshunos olim o'zining "Navoiy ijodida "So'z" istilohining ma'no tovlanishlari" maqolasida keng yoritib beradi. Bundan tashqari, olimning "Navoiy "So'z" deb so'zlashuvda ifoda etilgan fikr majmui, fikr ayirboshlash

ma'nosini bergan. Lekin Navoiy asarlarida aniq so'z — faqat bir kalimani ifodalab kelish holini ham uchramiz. Bunda shoir o'z fikrini aniq mavzuga qaratgan.

Har kimki o'lim so'zin demak fan aylar,
O'z holig'a bu so'z bila shevan aylar.
Tavrini suluk ichinda ahsan aylar,
Kim, ruhin o'lmak so'zi ravshan aylar.

Navoiy fikricha, o'rinli ishlatilgan ibora, xalq og'zaki ijodidagi quyma fikrlar vaqtida mohirona foydalana bilishdadir [8:301-304], — deya izohlab talqin etib o'z fikrini mustahkamlaydi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki: XX asr navoiyshunosligi: tarixiylik, ijtimoiylik, g'oyaviylik tamoyiliga tayangan. Hozirgi davr navoiyshunosligi esa: matn markazli tahlil, tasavvufiy va poetik yondashuv, manbashunoslik tamoyillariga asoslanmoqda. Bundan tashqari ayrim olimlarning XX asrdan keyingi zamonaviy davrga o'tishi va ko'proq tadqiqotlar olib borilishi natijasida zamonaviy-qiyosiy metodika ham, o'z navbatida, rivoj topib boryapti.

Xulosa qilib aytganda, XX asr navoiyshunosligi Alisher Navoiy merosini ilmiy muomalaga kiritib, uning adabiyot tarixidagi o'rnini mustahkam belgilab berdi. Hozirgi davr navoiyshunosligi esa ushbu ilmiy an'anani davom ettirgan holda, Navoiy asarlarining ichki ma'no qatlamlarini, irfoniy mohiyatini va badiiy tafakkur tizimini chuqurroq yoritishga xizmat qilmoqda. Bundan keyingi davrda ham bugungi navoiyshunos, adabiyotshunos va matnshunos olimlarimizdan yangi-yangi tadqiqot natijalarini kutib qolamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Alisher Navoiy va XXI asr" maqolalar to'plami. – T., 2019. – B.149-151.
2. "Alisher Navoiy va XXI asr" hamda "Alisher Navoiy va Sharq Renessansi" ilmiy anjuman materiallari.
3. "Alisher Navoiy va XXI asr" maqolalar to'plami – T., 2019. – B. 138-148.
4. "Alisher Navoiy va XXI asr" maqolalar to'plami. – T., 2018. – B. 301-304.
5. "Alisher Navoiy va XXI asr" maqolalar to'plami – T., 2021. – B. 138–148.
6. "Alisher Navoiy v Sharq renessansi" Maqolalar to'plami. – T.: "Ilm-Ziyo-Zakovat", 2023. – B. 488.
7. Alisher Navoiy: Qomusiy lug'at. 2-jild. Ma'sul muharrir Sh. Sirojiddinov. – T.: "Sharq", 2016. – 480 b.
8. Sh. Sirojiddinov va boshq. Navoiyshunoslik.
9. –T.: "TAMADDUN", 2018. – B. 11.
10. II Халқаро симпозиуми мақолалар тўплами. – T.: "Ilm-Ziyo-Zakovat", 2023. – 488 б.
11. <https://n.ziyouz.com>
12. www.academia.edu
13. <http://old.natlib.uz:8101/uz/article/1532/>
14. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/08/17/renaissance/>
15. https://uz.wikipedia.org/wiki/Akrom_Malik